



“MIRANDA QOIDASI” VA “XABEAS KORPUS” INSTITUTI – HUQUQLARIMIZNING MUHIM KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATI

Fayzullaeva Sevara Akmal qizi

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti huzuridagi M.S.Vosiqova

nomidagi akademik litsey 1.12-guruh o‘quvchisi

Annotatsiya: Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan e’tirof etilishi va kafolatlanish, jumladan, “Miranda qoidasi” va “Xabeas korpus” kabi xalqaro qoida va institutlarning milliy qonunchiligimizga asosiy qonunimizda aks etishi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, inson huquqlarining sud orqali himoya qilinishi kafolatlari, “Miranda qoidasi”, “Xabeas korpus” instituti, xalqaro huquq, konstitutsiyaviy kafolatlar.

KIRISH

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz O‘zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan e’tirof etilishi va kafolatidir.

ASOSIY

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi jahonadagi tan olingan demokratik davlatlar qatoriga qushilish hamda inson huquq va erkinliklari to‘liq ta’minlanishiga erishish uchun ham qonun normalarini takomillashtirish, ham amaliyotga tatbiq etish yo‘lidan jadal ilgarilamoqda. Shu maqsadda, Konstitutsiyamiz halqaro huquq normalariga to‘liq mos ravishda yangi tahrirda yangidan qabul qilindi.

Jumladan, unga inson huquqlari himoyasiga oid qator ijobiy kafolatlar kiritildiki, ular zahirida eng asosiy g‘oya, ya’ni inson huquq va erkinliklari ustuvorligi – huquqiy davlatning oliy maqsadi, deb e’tirof etilishi g‘oyasi yotadi. Aynan mana shu yondashuv asosida Konstitutsiyaning yangi tahririda inson huquqlariga oid normalar 3 barobardan ortiqqa oshdi.



“Miranda qoidasi” va “Xabeas korpus” instituti ana shunday yangi kafolatlardandir. Ularning mazmun-mohiyati nimadan iborat?

“Miranda qoidasi” deyarli barcha rivojlangan davlatlarda amal qiladigan, jinoyat sodir etishda gumon bilan ushlangan shaxs huquqlarining asosiy kafolati hisoblanadi.

“Miranda qoidasi” 1966 yilda AQSh Oliy sudining “Miranda – Arizonaga qarshi” ishida qabul qilingan qaror natijasida shakllangan. Unga ko‘ra, shaxs jinoyat sodir etishda gumonlanib, ushlangan vaqtida quyidagilardan aniq xabardor etilishi shart:

- sukut saqlash huquqiga egasiz, aytgan har qanday gapingiz sudda sizga qarshi ishlatilishi mumkin;
- advokat bilan maslahatlashingiz mumkin va bu advokat birinchi so‘roq davomida ishtirok etishi mumkin;
- agar advokat yollash uchun imkoniyatingiz bo‘lmasa, sizga bepul ravishda advokat xizmati ta‘minlanadi.

Agarda bu amalga oshirilmasa, uning bergan bayonotlari sudda dalil sifatida qabul qilinmaydi.

Aytish kerakki, “Miranda qoidasi” qisman bo‘lsa-da, milliy jinoyat ishlari yurituvda ko‘zda tutilgan.

Biroq, bugungi kunda jinoyat protsessida shaxs huquqlarini yanada ishonchli himoyalash bilan bog‘liq xalqaro standartlarni konstitutsiyaviy mustahkamlash zarurati katta. Xususan, “Miranda qoidasi”ning konstitutsiyaviy ravishda belgilanishi jinoiy ta‘qib ostiga olingan shaxslar, gumon qilinuvchi va ayblanuvchilar huquqlarini ta‘minlovchi real kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

“Miranda qoidasi”ning konstitutsiyaviy mustahkamlanishi jinoyat ishi xolis tergov qilinishi va tergov organlari tomonidan har qanday g‘ayriqonuniy harakatlar va taqiqlangan usullar qo‘llanilishining oldini oladi. Mazkur qoidaga ko‘ra, shaxsning huquqlari u yaxshi tushunadigan tilda tushuntirilishi talab etiladi.

Shaxsning sukut saqlash huquqi inson huquqlariga oid nufuzli xalqaro hujjatlarda ham aks etgan.



Internent jahon axborot tarmog'idagi ma'ulmotlarga ko'ra, mazkur talab qator davlatlar konstitutsiyalarida (Niderlandiya, Ispaniya, Gresiya, Xorvatiya, Sloveniya, Rossiya, Gruziya, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova va boshqalar) mustahkamlangan.

Masalan, AQSh Konstitutsiyasi 5-qo'shimchasida birorta shaxs hech bir jinoyat ishi bo'yicha o'ziga qarshi ko'rsatma berishga majbur qilinishi mumkin emasligi belgilangan.

Buyuk Britaniyada ushlab va hibsga olishga oid alohida qonunga binoan, politsiya xodimi shaxsni ushlagan vaqtda: "Siz biror narsa gapirishga majbur emassiz. Lekin keyinchalik sudda aytishni ko'zlayotgan gapingizni so'roq vaqtida aytmasangiz, bu sizning himoyalaniishingizga zarar berishi ehtimoli bor. Nimaiki gapirsangiz, barchasi dalil sifatida ishlatilishi mumkin", deya shaxsga huquqlarini tushuntiradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlangan yana bir muhim kafolat – har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilinishi huquqiga ega ekanini alohida e'tirof etish zarur.

Mazkur ajralmas huquqlar borasida so'z ketganda, albatta, xalqaro darajada umume'tirof etilgan hujjat - shaxs erkinligini ta'minlash yo'lida o'ziga xos yangi davrga asos solgan "Xabeas korpus akt" instituti ahamiyatini ta'kidlash joiz.

"Xabeas korpus" instituti ilk bor 1215-yilda qabul qilingan "Magna Karta" (Buyuk xartiya erkinliklari)da nazarda tutilgan. Keyinchalik, 1679 yilda Angliyada "Habeas Corpus Act" qabul qilinib, shaxsni noqonuniy ushlab va qamoqda saqlashga qarshi samarali huquqiy himoya tizimi yaratildi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyaviy normaga binoan, mazkur huquqlarning cheklanishiga faqat qonunda belgilangan hollarda va tartibda, sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi.

Konstitutsiyamizning yangi tahririga ko'ra, mazkur qoida bilan fuqarolarning shaxsiy hayot, uy-joy va xususiy mulk daxlsizligi huquqlari yanada mustahkamlanmoqda.



Endi tergovchi, surishtiruvchi va prokuror tintuv o'tkazish, telefon so'zlashuvlarini eshitish va mulkni xatlash zaruratini sudga asoslantirishi kerak bo'ladi.

Eng muhimi, bu konstitutsiyaviy yangilanishlar orqali tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida shaxs huquqlariga oid tergov xatolariga yo'l qo'yilmasligi hamda fuqarolarimizning sudlarga bo'lgan qat'iy ishonchini oshirishga erishildi.

XULOSA

Bosh qonunimizga kiritilgan yangi kafolatlar butun jahon e'tirof etgan "oltin qoidalar" bo'lib, ularning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi fuqarolarimizning huquq va erkinliklari himoya qilinishining yangi va ishonchli mexanizmini ishga soladi.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir) – 2023 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqi.
4. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" – BMT, 1948 yil, 12-modda.
5. "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt" – 1966 yil, 14-modda va 17-modda.
6. "Yevropa inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya" – 1950 yil, 8-modda.
7. Miranda v. Arizona, 384 U.S. 436 (1966) – AQSh Oliy sudining qarori.
8. AQSh Konstitutsiyasi – 5 va 6-qo'shimchalar.
9. Habeas Corpus Act (1679) – Buyuk Britaniya qonuni.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Bosh prokuraturasining huquqiy axborotlari, hisobotlari va tahlillari.
11. Qodirov S.X., "Inson huquqlari va jinoyat-protsessual kafolatlar" – Toshkent: Yuridik nashr, 2022.
12. Abdullaev A.K. "Jinoyat-protsessual huquqda shaxs huquqlari" – TDYuU ilmiy-amaliy jurnali, 2023 yil.



13. Yevropa Ittifoqi davlatlaridagi tergov va protsessual huquqiy kafolatlar to'g'risida taqqoslama tahlillar – Human Rights Watch, OSCE materiallari.